



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No6(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 360 sahifa,
12-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktab o'quvchilarining musiqiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	10
<i>Abilov Muslim Normuxammadovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati.....	14
<i>Bolqiyev Axmad</i>	
Jamiyat muhitida radikalizmning oldini olishga qaratilgan uzluksiz profilaktika tizimini yaratish	17
<i>Axmedova Iroda Shaxitbekovna</i>	
Inklyuziv ta'lim va gospital pedagogikani rivojlantirishda pedagogning tashkilotchilik madaniyati: nazariy va amaliy aspektlar	22
<i>Djabborov Ma'sud Bahriddinovich, Arolova Zarina Lochin qizi</i>	
Developing Sociolinguistic Competence in Intensive Teaching of Foreign Languages to Adults	28
<i>G. R. Tolibova</i>	
Языковая выразительность и художественный мир сказки "Муха-Цокотуха"	31
<i>Garifullina Alsu Robert qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda nasriy asarlarni o'qitish	35
<i>Ibodullayeva Madina Muzaffar qizi</i>	
Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari	38
<i>Ibroximova Fotimaxon Qobiljon qizi</i>	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni fuqarolik hayotiga ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining nazariy-metodologik tahlili (CTP dasturi misolida).....	42
<i>Ikmatullayev G'ayrat Zokirovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish yo'llari	47
<i>Islamova Fotima Shamsiddinovna, Ismoilova Mohinur Faxriddin qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari	52
<i>Mamanazar Djumayev</i>	
Turli vazn toifalaridagi dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish	61
<i>I. B. Matmuratova</i>	
Maktabgacha ta'limda xalqaro monitoring va baholash dasturlarining o'rni	65
<i>Mutalova Dilnoza Abdurashidovna</i>	
Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarning intellektuallik koeffitsientini rivojlantirish va zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirish	69
<i>Normamatova Sevinch Asror qizi</i>	
Ona tilidan o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari.....	73
<i>Oloqova O'g'iljon Mamanazarovna</i>	
Oliy ta'limda adaptiv raqamli ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish modeli ...	77
<i>Quchqarova Dilnovoz Shaymaxammad qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini autentik videomateriallar asosida rivojlantirish metodikasi	81
<i>Qurbonova Shalola Ilhomiddinovna</i>	
Jadid ma'rifatparvarlari pedagogik merosini tadqiq etishning zamonaviy ijtimoiy-pedagogik ahamiyati	84
<i>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining funksional savodxonligini xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish	88
<i>Shavqiddin Burxonov</i>	
Development of Students' Artistic Taste and Aesthetic Education as a Pedagogical Problem.....	91
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
O'smirlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning pedagogik imkoniyatlari...	95
<i>Umarov Qobiljon</i>	



Ta'lim va tarbiya tizimida falsafiy yondashuvning pedagogik asoslari	98
Umurov Sharif Rajabovich	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlariga oid mashg'ulotlar ustida ishlash	102
Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi	
Методические основы развития критического мышления обучающихся при изучении информационных технологий в условиях использования искусственного интеллекта	106
Панжиева Назокат Норматомовна	
Динамика морфологической системы современного русского языка в условиях цифровизации	111
Тураева Дилфуза Даминовна	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri	116
Abdug'aniyeva Saodat Shuhrat qizi	
Blended Learning Pedagogy in University EFL Writing Courses: Effects on Linguistic Accuracy and Learner Autonomy	120
Inomidinova Dildorxon Ikramovna	
O'smirlik davrida psixologik rivojlanishning muhim jihatlari va uning determinantlari.....	125
M. S. Usmonova	
The Relationship Between Grammar Knowledge and Writing Proficiency in EFL Learners	130
Tahirova Shaxribonu	
Особенности интерпретации юридических терминов в медиатекстах.....	139
Хамидова Нигора Тулкуновна	
Sportchilarning ijtimoiy moslashuvda murabbiy shaxsining roli	142
Akbarova Maloxatoyimposhsha Saidto'ra qizi	
Raqamli asrda yoshlarning media savodxonligi: ingliz tili og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda vlog yuritishning o'rni.....	146
Akramova Yulduz Farxadovna, To'rayeva Maftuna Ravshanovna	
Naqshbandiya ta'limotida psixospiritual paradigmalarining mohiyati	151
Ashurova Gulru	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarining hamkorlikdagi o'quv faoliyatini monitoring qilish mexanizmlari.....	154
Bekmuratov Qadirbergen Quwanishbaevich	
Oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish.....	158
Hotamov Lochinbek Uktam o'g'li	
Improving Speaking Skills Through Authentic Videos Abstract	162
Imamaliyeva Gulnoza Ulug'bekovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi (pedagogik ritorika fani misolida).....	168
Ismoilov Muhammadkarim Miraxmat o'g'li	
Boshlang'ich ta'limda kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirishning texnologik asoslari (2-sinf rus tili darslari misolida)	170
Jabborova Muslima Toxirovna	
Pedagogik amaliyot jarayonida talabalarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning innovatsion mexanizmlari	175
Karimova Barno Ergashevna	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari	178
Mamanazar Djumayev	
Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning pedagogik-didaktik asoslari	187
Maxmudova Gulchiroy G'anisherovna	
Regbi mashg'ulotlari jarayonida talabalarining tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishning differensial metodikasi	191
Nematov Bahodirbek Baxtiyor o'g'li	
Oila muhitida siblinglararo munosabatlarda psixologik manipulyatsiyaning namoyon bo'lish xususiyatlari...	195
Nishanova Zulfizar Yashin qizi	

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashning hozirgi holati hamda innovatsion ta'lim texnologiyalari va tpack yondashuvi asosida pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish	199
<i>Nozimabonu Tojiboyeva</i>	
Agressiv xulqning ijtimoiy-psixologik determinantlari.....	204
<i>O'ktamova Shohida Odilbek qizi</i>	
Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning pedagogik afzalliklari va xavflari.....	209
<i>Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li</i>	
Kichik tadbirkorlik subyektlarining hudud eksport salohiyatini oshirishga ta'sirining ekonometrik-statistik tadqiqi	214
<i>Boymatova Dildora Olim qizi, Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga tovush yo'nalishini aniqlashtirish metodikasi.....	218
<i>Haydarov Islomjon Hatamjon o'g'li</i>	
Bolalar folklori asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	222
<i>Jo'raboyeva Mushtariy Jamoldin qizi</i>	
O'zbekistonda maktab ta'limida o'quvchilarning kasbiy salohiyatini aniqlashda sun'iy intellektdan foydalanish	228
<i>Karimova Sarvinoz Hojiqurbonovna</i>	
Aqli zaif bolalarning so'zlashuv nutqiga qo'yiladigan talablar	233
<i>N. S. Mirbabayeva</i>	
Oliy ta'lim muassasasida ta'lim va tarbiya berish metodlari	237
<i>Kamalov Rustam Azizovich</i>	
Bo'lajak logopedlarni tayyorlashda pedagogik mahoratini rivojlantirish xususiyatlari.....	241
<i>Shamsiyeva Sevara Yusupovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani rivojlantirishda loyihaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish.....	244
<i>Tangirqulov Elmurod Aliyarovich</i>	
Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish	248
<i>Toshtemirova Sarvinoz Obidovna</i>	
Shaxsning ijtimoiy-psixologik yo'naltirilganligi guruhviy jipslikni belgilovchi individual omil sifatida	251
<i>Turayev Nurmuhammad Alibek Fozil o'g'li</i>	
Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish (aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar misolida).....	254
<i>G'ofurova Umida O'tkirbek qizi</i>	
The Role of Artificial Intelligence in Creating Interactive Methods in English.....	258
<i>Urozboyeva Mavluda Shukurlo qizi</i>	
Bo'lajak muhandislarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari	262
<i>Xalikova Xurshida Abdullayevna</i>	
Suv ekotizimlarida turlar sonining kamayishini eDNA metabarkoding orqali aniqlash va uning oziq-ovqat xavfsizligidagi ahamiyati.....	267
<i>Xalilova Nigora Ixtiyorovna, Izzatilloeva Umida Kamolovna</i>	
Asalarilar sonining kamayishi va global ekologik xavf.....	272
<i>Xalilova Nigora Ixtiyorovna, Sayfulloyeva Dilnura Samandarovna</i>	
Enhancing A2 Learners' English Speaking Skills Through Short Stories With Structured Question-and-Answer Activities.....	276
<i>Xudoyberdiyeva G. Sh.</i>	
Кризис интеллигента и поиск смысла жизни в русской и мировой прозе XX Века: сравнительный анализ романов "Обломов" (И. Гончаров) и "Великий гатсби" (Ф. С. Фицджеральд) ..	280
<i>Аманова А. А., Саттарова М.</i>	
Понятие профессиональной ориентации и ее педагогическая сущность	285
<i>Каримова Наргиза Абдугафуровна</i>	
Talabalarning sun'iy intellektli ta'limiy vositalarni loyihalash kompetentligini shakllantirishning pedagogik shartlari	289
<i>Toxirov Feruz Jamoliddinovich</i>	



Maktab ta'lim tizimida STEAM yondashuvini joriy etishda loyiha boshqaruvining roli va samaradorligi	293
<i>Avalboyeva Mavluda Abdumalikovna</i>	
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion mexanizmlari	300
<i>Xodjayeva Matlyuba Rustamovna</i>	
Biologiya darslarida interaktiv metodlar orqali o'quvchilarning tanqidiy va kreativ fikrlashini rivojlantirish	304
<i>Hayitov Abdurasul Eshdavlatovich, Anvarjonova Odinaxon Xayrullo qizi, Rahimova Fazilat Akrom qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida tabiiy fanlarga doir bilimlarni shakllantirish	309
<i>Nuriddinova Maysara Ikramovna, Eshonqulova Uralbuvish Fayzullayevna</i>	
Brayl sistemasidagi boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda interfaol uslublardan foydalanish	312
<i>Nuriddinova Maysara Ikramovna, Jo'raqulova Sharofat Baxtiyorovna</i>	
Метод параллельного переноса при делении угла с недоступной вершиной	315
<i>Эсонов Мунавваржон Муқимжонович</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida geometrik masalalarni yechish	318
<i>Sobirova Dinora Umidjon qizi</i>	
O'zbekistonda raqamli jamiyat sharoitida internetdan foydalanish savodxonligini oshirish muammolari va yechimlari	323
<i>Boboqulova Dildora Xolmamat qizi</i>	
Saida Sherahmad qizi hayoti va faoliyatida jadid ayollar ta'limiy qarashlarining namoyon bo'lishi	326
<i>Ergashova Mehriniso Husniddin qizi</i>	
Formation of Environmental Protection and "Green" Economy Concepts among School-Age Youth	329
<i>Kholmominova Oygul Jumayevna</i>	
Boshlang'ich sinf darslarining samaradorligini oshiruvchi interfaol metodlar va ularning ahamiyati	333
<i>Mavlonova Mohlaroyim Nurmat qizi</i>	
Bo'lajak surdopedagoglarning refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish	338
<i>Raximova Muniraxon Iloxomovna</i>	
XX asrning boshlarida Buxoroda jadidchilik harakati asoschilarining ta'lim-tarbiyaga qo'shgan hissasi	342
<i>Safarova Gulzoda Ismoilovna</i>	
O'smirlarda agressiv holatlar va deviant xulq-atvorning psixologik xususiyatlari	346
<i>Shaymardanova Nargiza Maxmanaxarovna</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida sportchilarning musobaqaoldi psixologik tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari	349
<i>Yigitaliyev Abubakir Farxodjon o'g'li</i>	
Shaxs rivojlanishida motivlarning ahamiyati: psixologik tahlil	354
<i>Sh. Mirabdullayeva</i>	

XX ASRNING BOSHLARIDA BUXORODA JADIDCHILIK HARAKATI ASOSCHILARINING TA'LIM-TARBIYAGA QO'SHGAN HISSASI

Safarova Gulzoda Ismoilovna

Buxoro davlat pedagogika instituti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asrning boshlarida Buxoro amirligida jadidchilik harakatining shakllanishi va uning ta'lim-tarbiya sohasidagi islohiy faoliyati tahlil etiladi. Maqolada harakatning yetakchi vakillari - Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy va boshqalarning usuli jadid maktablari tashkil etishdagi, darsliklar yaratishdagi va milliy ongini uyg'otishdagi roli ko'rib chiqiladi. Ilmiy manbalar, arxiv hujjatlari va zamonaviy tadqiqotlar asosida jadidchilik harakatining ta'lim sohasidagi islohotlari Buxoro jamiyatini modernizatsiya qilishda muhim omil bo'lganligi isbotlanadi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, usuli jadid, Buxoro, Behbudiy, Fitrat, Ayniy, ta'lim islohotlari, yangi usul maktabi, milliy ma'rifatchilik.

Abstract: This article analyzes the formation of the Jadid movement in the Bukhara Emirate at the beginning of the 20th century and its reformist activities in the field of education and upbringing. The roles of the movement's leading figures - Mahmudkhodja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayni, and others - in establishing new-method schools, creating textbooks, and awakening national consciousness are examined. Based on scholarly sources, archival documents, and contemporary research, it is demonstrated that the Jadid educational reforms were a crucial factor in modernizing Bukharan society.

Key words: Jadidism, usul-i-jadid, Bukhara, Behbudiy, Fitrat, Ayni, educational reforms, new-method school, national enlightenment.

Аннотация: В данной статье анализируется формирование джадидского движения в Бухарском эмирате в начале XX века и его реформаторская деятельность в сфере образования и воспитания. Рассматривается роль ведущих представителей движения - Махмудходжи Бехбуди, Абдурауфа Фитрата, Садриддина Айни и других - в организации новометодных школ, создании учебников и пробуждении национального самосознания. На основе научных источников, архивных документов и современных исследований доказывается, что образовательные реформы джадидов стали важным фактором модернизации бухарского общества.

Ключевые слова: джадидизм, усули джадид, Бухара, Бехбуди, Фитрат, Айни, реформы образования, новометодная школа, национальное просвещение.

KIRISH

XIX asrning oxiri - XX asrning boshlarida O'rta Osiyo xalqlari, xususan, Buxoro amirligi fuqarolari chuqur ijtimoiy-siyosiy va madaniy inqirozni boshidan kechirdi. Rus mustamlakachiligi kengayib borayotgan bir davrda an'anaviy maktab-madrassa ta'limi jamiyatning yangi talablariga javob bera olmay qoldi. Aynan shu tarixiy zaruriyat zaminida jadidchilik harakati vujudga keldi - bu harakat nafaqat siyosiy, balki birinchi navbatda ta'limiy va ma'rifiy harakat sifatida maydonga chiqdi. "Jadid" so'zi arabcha "yangi" degan ma'noni anglatib, "usuli jadid" - yangi o'qitish usuli tushunchasidan kelib chiqqan. Bu harakat milliy ziyolilarni birlashtirdi va ularning bosh maqsadi xalqni ma'rifat orqali yangilash, eski aqidaparastlik va jaholat kishanlaridan ozod etish bo'ldi. Buxoro bu harakatning eng muhim markazlaridan biri bo'ldi, chunki bu shahar tarixan Islom ilm-fani va madaniyatining qal'asi hisoblanib, ayni paytda eng qoloq siyosiy tuzumlardan biri - mutlaq monarxiya va ruhoniylar hokimiyati ostida qolgan edi.

Jadidchilik harakatini o'rganish sohasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar mavjud. Sovet davrida bu mavzu siyosiy sabablarga ko'ra yuzaki yoki noto'g'ri talqin etildi. Mustaqillik yillaridan boshlab o'zbek olimlari bu merosni qayta ko'rib chiqish boshladilar.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Adeeb Khalid o'zining "The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia" (1998) asarida jadidchilikni kengroq geosiyosiy kontekstda, Islom islohot harakatlari va Rus mustamlaka siyosati kesishmasida tahlil qildi. U Buxoro jadidlarining o'ziga xos xususiyatlariga - amirlik tuzumiga qarshi kurash va diniy ruhoniylar bilan murakkab munosabatlarga - alohida e'tibor qaratdi.

Hasan Qo'shimov, Begali Qosimov va Naim Karimov kabi o'zbek tadqiqotchilari Behbudiy, Fitrat va Ayniyning adabiy-pedagogik merosini chuqur tahlil qildilar. N. Karimovning "Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash" (2000) asari bu sohadagi muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Mavzuning ba'zi jihatlari, xususan, Buxorodagi maxfiy jadid faoliyatining ma'rifat bilan bog'liqligi hanzuz yetarli darajada o'rganilmagan.

XX asr boshida Buxoro amirligi rasman mustaqil bo'lsa-da, amalda Rossiya imperiyasining protektorati ostida edi. Amirlik ichida ruhoni zodagonlar (ulamolar) siyosiy va madaniy hayotni nazorat qilar, eski madrasa ta'limi islohotdan mahrum bo'lib, asosan diniy matnlarni yodlash va arab grammatikasiga asoslanardi. Bunday ta'lim tizimi zamonaviy fan, tabiatshunoslik, matematika va texnika bilimlaridan butunlay uzoq edi.

Shu bilan bir vaqtda Rossiya imperiyasi bosimi ostida erkin bozor munosabatlari rivojlanib, ko'plab buxoroliklar savdo-sotiq orqali Qozon, Istanbul, Hindiston va Afg'oniston bilan aloqalar o'rnatdilar. Aynan shu savdo-madaniy aloqalar orqali yangicha pedagogik g'oyalar, ayniqsa, qrimlik Ismoil G'aspiralining islohotlari Buxoroga yetib keldi.

Ismoil G'aspirali (*Gasprinski, 1851–1914*) "usuli savtiya" - tovush usulida o'qitish metodini joriy etgan va "Tarjumon" gazetasi orqali butun turkiy dunyo bo'ylab yangi pedagogik g'oyalarni targ'ib qilgan olim va pedagog edi. Uning ta'siri Buxoroga 1890-yillardan kirib kela boshladi. G'aspirali metodida harflarni alohida yodlatish o'rniga tovush asosida o'qish o'rgatildi, bu esa savodxonlik muddatini yillardan haftalargacha qisqartirdi.

Buxorolik yoshlar va savdogarlar G'aspiralining "Tarjumon" gazetasini o'qib, yangi usul maktablarini ochish zarurligi haqida fikr yuritar edilar. Bu g'oya dastlab kichik doiralarda muhokama qilinib, asta-sekin amaliy harakat shaklini ola boshladi.

Mahmudxo'ja Behbudiy (*1875-1919*). Mahmudxo'ja Behbudiy Buxoro jadidchiligining eng yirik vakili hisoblanadi. U Samarqandda tug'ilgan bo'lsa-da, uning faoliyati Buxoro va umuman Turkiston jadidchiligiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Behbudiy 1903-yilda Samarqandda birinchi usuli jadid maktabini ochdi va bu tajriba Buxoro ziyolilari uchun namuna bo'ldi. U faqat arab va fors tillari emas, balki rus tili, matematika, tarix va geografiyani o'qitishni talab qildi. Uning "Muntaxabi Jug'rofiyai Umroniy" (1905) va "Risolai Jug'rofiyai Rusiya" (1905) geografiya darsliklari mahalliy tilda yozilgan ilk zamonaviy darsliklar qatoriga kiradi.

Behbudiyning pedagogik falsafasi quyidagi asosiy tamoyillarga asoslangan edi:

birinchidan, ta'lim ona tilida olib borilishi kerak;

ikkinchidan, din va dunyoviy fanlar birga o'qitilishi lozim;

uchinchidan, ayollar ham ta'lim olish huquqiga ega;

to'rtinchidan, maktablar jamiyatning barcha tabaqalari uchun ochiq bo'lishi shart.

Behbudiyning "Padarkush" (1911) dramasi ham bevosita ta'lim mavzusiga bag'ishlangan - asarda ta'limsiz va jaholat ichida o'sgan yoshning fojiviy qismati tasvirlangan. Bu asar sahna orqali xalqni ma'rifatga chaqirishning eng ta'sirchan namunasi bo'ldi.

Abdurauf Fitrat (*1886-1938*). Abdurauf Fitrat Buxoroda tug'ilib, ta'lim olgan va keyinchalik Istanbul universitetida tahsilini davom ettirgan. U jadidchilik harakatining eng salohiyatli mutafakkirlaridan biri bo'ldi.

Fitratning "Munozara" (1909) asari jadidchilik adabiyotining cho'qqisi hisoblanadi. Bu asarda eski va yangi ta'lim tizimlarining qiyosiy tahlili keltirilgan bo'lib, muallif buxorolik bir mulla va hind musulmonining munozarasi orqali eski madrasa ta'limining kamchiliklarini ayovsiz tanqid qildi. Asar Buxoro jamiyatida katta aks-sado uyg'otdi.

Fitratning "Oila" (1915-1916) asarida u ta'limni oiladan, ayollarning mavqeini ko'tarishdan boshlash kerakligini asosladi. Uning fikricha, onalar o'z farzandlarini to'g'ri tarbiyalay bilsagina, jamiyat yuksalishi mumkin. Bu g'oya shu davr uchun inqilobiy ahamiyat kasb etdi.

Istanbul universitetida tahsil yillarida Fitrat Turkiya ta'lim tizimini chuqur o'rgandi va bu tajribani Buxoroga qaytgach, mahalliy sharoitga moslashtirib qo'llashga harakat qildi. U ayniqsa tarix va adabiyotni milliy ong shakllantirishning muhim vositasi deb bildi.

Sadriddin Ayniy (*1878-1954*). Sadriddin Ayniy Buxoro jadidchiligining eng muhim pedagogik amaliyotchi vakili bo'lib, u keyinchalik o'zbek va tojik adabiyotining asoschisi sifatida ham tan olindi.

Ayniy Buxoro madrasasida ta'lim olgach, jadidchilik g'oyalari ta'sirida yangi usul maktablarida muallimlik qila boshladi. U 1908-1916-yillarda Buxoroda bir nechta yangi usul maktabida dars berdi. Ayniy darsliklarni mahalliy bolalar uchun tushunarli, sodda tilda yozishga intildi. Uning "Tahzib ul-atfol" (Bolalar tarbiyasi, 1909) asari o'zbek tilida yozilgan ilk zamonaviy pedagogik qo'llanmalardan biri hisoblanadi.

Ayniyning xotiralari - "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar" (1920) va "Yoddashtho" (Esdaliklar) - jadidlar faoliyatini o'rganishda nodir birlamchi manba bo'lib xizmat qiladi. Bu asarlarda u o'zi shohid bo'lgan yangi maktab ochish jarayonlari, eski ruhoniylar tomonidan ko'rsatilgan qarshilik va shogirdlarning o'qishga bo'lgan ishtiyoqi haqida batafsil yozgan.

Usmon Xo'jayev va Buxoro yoshlari tashkiloti

1910-yillarda Buxoroda yoshlarning norasmiy to'garaklari paydo bo'la boshladi. Usmon Xo'jayev va Fayzulla Xo'jayev boshchiligidagi "Yosh buxoroliklar" harakati jadidchilik g'oyalarini siyosiy harakatga aylantirdi. Bu harakat ta'lim islohotlarini Buxoro amirligi ichidagi siyosiy o'zgarishlar bilan bog'liq holda ko'rib chiqdi. Ular ham o'z qarorgohlari va to'garaklarida savodxonlik darslarini o'tkazib, yangi usulda o'qish-yozishni o'rgatdilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

1-jadval: An'anaviy va yangi usul maktablarining taqqoslanishi

Mezon	Eski maktab (maktabi qadim)	Yangi maktab (usuli jadid)
O'qitish usuli	Yod olish, takrorlash	Tovush usuli, tushunib o'qish
O'quv dasturi	Faqat diniy fanlar	Din + Dunyo fanlari
O'quv tili	Arab, fors	Ona tili (o'zbek, tojik)
O'quv muddati	3-5 yil (alifbe uchun)	3-6 oy (alifbe uchun)
Maqsad	Quron yod olish	Savodxonlik + Hayotiy bilimlar
Ayollar ta'limi	Yo'q	Asta-sekin joriy etilgan

Buxorodagi yangi usul maktablarining o'quv dasturiga quyidagi fanlar kirgan: ona tili va savodxonlik, diniy ta'lim (isloh qilingan shaklda), arifmetika va hisob, tarix (mahalliy va umumiy), geografiya (amaliy bilimlar bilan), arab va fors tillari (tanlab o'rganish sifatida) hamda amaliy kasb-hunar asoslari. Bu dastur an'anaviy madrasalar dasturiga qaraganda ancha keng va hayotga yaqin edi. Ayniqsa, matematika va geografiya fanlarini kiritish o'sha davr uchun inqilobiy qadam hisoblanardi.

Buxorodagi jadidlar darslik yaratish masalasiga alohida e'tibor qaratdilar. Ular tushundilarki, o'qitish usulini o'zgartirish yetarli emas - o'quv materiallarini ham tubdan yangilash zarur. Shu maqsadda bir qator qimmatli darsliklar yaratildi: Behbudiyning geografiya darsliklari (1905), Ayniyning "Tahzib ul-atfol" qo'llanmasi (1909), Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Yangi saodat" o'quv kitobi (1914), Munavvar Qori Abdurashidxonovning "Adibi avval" va "Adibi soniy" darsliklari (1901-1903). Bu darsliklar faqat o'zbek va tojik tillarida yozilmay, balki ular bolalarning kundalik tajribalaridan, mahalliy tarix va geografiyadan misollar oldi - bu pedagogika nuqtai nazaridan muhim yangilik edi.

Buxoro amirligi ruhoniylar ulamolari jadidchilik harakatini dastlab dushmanlik bilan kutib oldilar. Ularning fikricha, yangi maktablar islomiy ta'lim an'alarini buzib, yoshlarni din yo'lidan ozdirar edi. Ba'zi ulamolalar yangi maktablarni "kofirlik uyi" deb, fatvolar chiqardilar. Natijada bir qator jadid muallimlar madrasa va masjidlardan haydaldi, maktablari yopildi.

Buxoro amiri Said Olimxon (1910-1920) jadidlarni siyosiy jihatdan xavfli kuch deb hisobladi. 1916-1917-yillarda bir qator jadid faollari hibsga olinib, ta'qibga uchradi. Sadridin Ayniy ham 1917-yilda hibsga olinib, kaltaklandi va Buxorodan haydaldi. Bu voqeani u o'zining esdalik asarlarida batafsil tasvirlaydi.

Shunday bo'lsa-da, ta'qiblar harakatni to'xtata olmadi - aksincha, jadidlar yanada qat'iyat bilan ish ko'rdilar.

Ta'qiblar sharoitida jadidlar ta'lim ishlarini ko'pincha xususiy uylarda, savdo do'konlari orqasida va yashirin ravishda olib bordilar. Ba'zi jadid maktablari rasmiy ro'yxatdan o'tmasdan, shaxsiy mulk sifatida faoliyat ko'rsatdi. Bu yashirin tarmoq orqali yangi pedagog kadrlar tayyorlandi va jadidchilik g'oyalari avloddan avlodga o'tdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jadidchilik harakatining eng muhim natijalaridan biri - ona tilida ta'lim berishni talab qilishi edi. Bu talab milliy til va madaniyatni saqlash va rivojlantirishning asosi bo'ldi. Jadidlar tomonidan o'zbek tilida chop etilgan darsliklar, dramalar va gazetalar milliy adabiy til normalarini shakllantirishga xizmat qildi.



1920-yillardan boshlab Sovet hokimiyati davrida keng qamrovli savodxonlik kampaniyalari olib borildi. Bu kampaniyalar ko'p jihatdan jadidlar tomonidan tayyorlangan metodik bazaga - darsliklarga, o'qitish uslubiyatiga va kadrlar tayyorlash tajribasiga tayandi. Demak, jadidchilik harakati zamonaviy O'zbekiston ta'lim tizimining ilk poydevori hisoblanadi.

Jadidchilik pedagogikasida quyidagi tamoyillar hozirgi kunda ham muhimligini saqlab kelmoqda:

- ta'limning ona tilida olib borilishi;
- ta'limda tushunib o'rganish usulining yod olishdan ustunligi;
- dunyoviy fanlar va din bilimlarining uyg'unlashtirilishi;
- ta'limning hayot bilan bog'liqligi hamda barcha ijtimoiy tabaqalar uchun ochiqligi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

XX asr boshlarida Buxorodagi jadidchilik harakati nafaqat siyosiy, balki avvalambor ta'limiy-ma'rifiy harakat sifatida o'zbek va tojik xalqlarining tarixida muhim o'rin egalladi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy va boshqa jadid rahbarlarining ta'lim sohasidagi hissasi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- usuli jadid maktablarini tashkil etish va rivojlantirish;
- mahalliy tillarda zamonaviy darsliklar yaratish;
- an'anaviy yod olish o'rniga tushunib o'qitish metodologiyasini joriy etish;
- o'quv dasturini zamonaviy fanlar bilan to'ldirish;
- ayollar va kambag'allar uchun ta'limga yo'l ochish hamda milliy ong va o'zlikni anglash tuyg'usini tarbiyalash.

Jadidchilik harakatining ta'lim sohasidagi islohot urinishlari o'z davri uchun juda ilg'or edi. Ruhoniylar va amirlik hukumatining ta'qiblariga qaramay, jadidlar o'z faoliyatlarini davom ettirdilar va zamonaviy O'rta Osiyo ta'lim tizimining intellektual asoslarini yaratdilar. Ularning merosi bugun ham o'zbek pedagogik tafakkurining muhim qismini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Fayzulla Xo'jayev // Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2005.
2. Rahimboyeva M.J "Ahmad Donish va Buxoroda jadidchilik harakatlari tarixi" Buxoro: "Durdona" 2024. 3,11,13-b
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent: O'qituvchi, 1992.
4. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. - Toshkent: Ma'naviyat, 1999.
5. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 1-2-jildlar. - Toshkent: Fan, 2000.
6. Ayniy S. Esdaliklar. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
7. Qosimov B. Jadidchilik harakati va ma'rifatparvarlik. - Toshkent: Fan, 2004.
8. Karimov N. O'zbek pedagogik tafakkuri tarixi. - Toshkent: O'qituvchi, 1997.
9. To'xtaxo'jayev M. O'zbekistonda xalq ta'limi tarixi. - Toshkent: Sharq, 2001.
10. Rasulov A. XX asr boshlarida Buxoro amirligi ijtimoiy hayoti. - Toshkent: Fan, 2003.
11. Jo'rayev T. Markaziy Osiyoda jadid maktablari faoliyati. - Toshkent: Ma'naviyat, 2006.
12. Xolboyev A. Pedagogika tarixi. - Toshkent: O'qituvchi, 2010.
13. Saidov A. Buxoro jadidlarining ma'rifiy faoliyati. - Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti, 2012.
14. Abdurashidov M. Jadidchilik va milliy uyg'onish. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.